Иқтисодий ва ижтимоий кенгаш инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликлари ҳурмат қилиниши ҳамда уларга риоя этилишини рағбатлантириш мақсадида тавсиялар бериши ва ёрдамчи органлар – қўмиталар ва комиссиялар тузиши мумкин. Мустақиллик йилларида мамлакатда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш билан шуғулланувчи давлат ташкилотлари тизими шаклланди. Бу тизимда анъанавий судлов ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларидан иборат бўлган судлов органлари билан бир қаторда, инсон ҳуқуқлари бўйича миллий институтлар ва нодавлат ташкилотларидан иборат бўлган инсон ҳуқуқлари бўйича носудлов органлари ҳам шаклланди.

Инсон ҳуқуқларини Ўзбекистон Республикасининг суд органлари орқали ҳимоя қилиш инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш механизмининг таркибий ва ҳал қилувчи қисмидир. Чунки, суд бузилган инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини тиклаш тизимида энг муҳим восита ҳисобланади. Ҳар бир шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини суд томонидан муҳофаза этилиши, давлат органлари, мансабдор шахслар ва жамоат бирлашмаларининг ноқонуний ҳаракатларидан судга шикоят қилиш ҳуқуқи кафолатланади. Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимияти қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятлардан, сиёсий партиялардан ва бошқа жамоат бирлашмаларидан мустақил ҳолда иш юритиши эълон қилинди.

Мамлакатдаги ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар тизими давлат ҳокимиятининг анъанавий тизими сифатида инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилишдаги иштироки бекиёс ҳисобланади. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг прокуратура органлари ҳуқуқни муҳофаза қилувчи, шу жумладан, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизимида муҳим ва асосий ўринлардан бирини эгаллайди. Қонунийлик ва ҳуқуқий тартиботга риоя этиш устидан назорат қиладиган давлат органи бўлган прокуратура нафақат давлат ҳокимиятини мустаҳкамлаш

вазифасини, балки инсон ва фуқаронинг конституциявий хуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш бўйича муҳим ижтимоий вазифани ҳам бажаради. Айнан фуқароларнинг конституциявий хуқуқларини давлат органлари мансабдор шахсларининг ноқонуний ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлигидан ҳимоя қилиш Ўзбекистонда хуқуқий давлат барпо этиш жараёнида муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикасининг ички ишлар органлари хуқуқни муҳофаза қилиш идоралари тизимида киради. Ички ишлар идораларининг асосий вазифаларига конституциявий тузумни ҳимоя қилиш, жамоат тартиби ва хавфсизлигини сақлаш, фуқароларнинг ҳамда корхона, муассаса ва ташкилотларнинг мулкини, хуқуқ ва эркинликларини ҳар хил жиноий тажовузлардан ва бошқа хуқуқбузарликлардан ҳимоя қилиш, жиноятчиликнинг олдини олиш ва содир этилган жиноятларнинг қисқа фурсатда тўлиқ очилишини таъминлаш, жиноятни содир этиш сабабларини аниқлаб, уларни бартараф этиш, содир этилган жиноятларни тергов қилиш, паспорт тизими фаолиятини таъминлаш (фуқароларга паспорт берилишини, уларнинг рўйхатдан ўтиши ва чиқишини, визаларини расмийлаштириш), йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш, маъмурий жавобгарлик ва жиноий жазоларни бажарилишини таъминлаш, вояга етмаганлар билан ишлаш, фуқаролар томонидан ўқ отар қуролларни сотиб олиш, сақлаш ва олиб юриш тартибини назорат қилиш ва расмийлаштириш каби кўплаб вазифалар киради.

Ўзбекистон Республикасининг адлия органлари инсон хуқуқлари ва эркинликларини таъминлаш тизимида муҳим аҳамият касб этиб, анъанавий тарзда хуқуқни қўлловчи ва хуқуқни муҳофaza қилувчи органлар сирасига киради. Адлия вазирлиги томонидан ижтимоий-сиёсий ҳаётни, давлат тузилишини, шу жумладан, суд-хуқуқ соҳасини эркинлаштириш, инсоннинг хуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишни таъминлашга йўналтирилган қонунлар ижросини таъминлаш бўйича аниқ мақсадга йўналтирилган ишлар амалга оширилмоқда. Вазирликнинг бевосита иштирокида инсон хуқуқларини, тадбиркорлар ва хусусий мулк эгаларининг қонуний манфаатларини ҳимоя қилишнинг самарали механизmlари яратилди, хуқуқни қўллаш амалиётини доимий таҳлил этиб бориши ва мониторинг қилиш ҳамда амалдаги қонунчиликни такомиллаштириш бўйича асосли таклифлар ишлаб чиқиш тизими жорий қилинди.

Инсон хуқуқларини ҳимоя қилишда адвокатура институтининг роли катта ҳисобланади. Адвокатура институти ваколатларининг кенгайиб, фаолиятининг ривожланиб бориши инсон манфаатлари, хуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилишнинг носудлов механизми янада такомиллашиб бораётганидан ва қучли фуқаролик жамиятининг пойдевори мустаҳкамланиб бораётганидан дарак беради.

Мамлакатдаги инсон хуқуқларини таъминлаш тизимида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Халқ қабулхоналари ва Виртуал қабулхоналари давлат органлари билан аҳоли ўртасида очиқ мулоқотни йўлга қўйиш орқали давлат органлари ва бошқа ташкилотлар томонидан фуқароларларнинг мурожаатларини

кўриб чиқиш орқали уларнинг хуқуқ ва эркинликларини таъминлашда ўзига хос самарали механизмга айланди.

Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг қабулхоналари тадбиркорларнинг хуқуқларини ҳимоя қилишда муҳим роль ўйнамоқда. Тадбиркорлик субъектларининг, шу жумладан, хорижий инвесторларнинг қонуний хуқуқлари ва манфаатларига риоя қилинишини таъминлаш мақсадида ташкил этилган мазкур қабулхоналар, тадбиркорликни ривожлантиришга тўсқинлик қилаётган муаммоли масалаларни кўриб чиқиш ва мавжуд бюрократик, шу жумладан, ер участкалари ва бинолар, банк кредитлари ажратиш, рухсат берувчи ҳужжатларни олиш ва бошқа масалалардаги тўсиқларни бартараф этишда муҳим роль ўйнамоқда.

Инсон хуқуқларини ҳимоя қилишнинг миллий механизми тизимида инсон хуқуқлари бўйича миллий институтлар алоҳида ўрин эгаллайди. Миллий институтлар тизими таркибига Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Инсон хуқуқлари бўйича вакили (омбудсман), Президент ҳузуридаги тадбиркорлар хуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича вакил (бизнес-омбудсмен), Инсон хуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази институтлари киради.

Инсон хуқуқлари бўйича носудлов органлар тизимида яна бир асосий ўринни эгаллаб турган фуқаролик жамиятининг муҳим институтларидан бири бўлмиш нодавлат нотижорат ташкилотлари катта роль ўйнайди.

Инсон хуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилишда фуқаролик жамияти институтларидан бири сифатида оммавий ахборот воситаларининг ўрни ва роли ҳам кейинги пайтларда, алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Махқумларнинг хукукларини ҳимоя қилиш бўйича Нилсон манделла қойдалари ва БМТнинг декларатсиаси мавжуд. Миллий хукукда эса Жиноят ижроия кодекси мавжуд. 2021-йил 8-ноябрьда мамлакатимиз жазони ижро этиш муассасалари ходимлари учун нельсон манделла қоидаларининг асосий тамоиллари мавзусида амалий тренинг бошланди. Амалий тренинг Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қийноққа солиши ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори ижросини таъминлаш мақсадида ташкил этилди. Бунда Нелсон Мандела қоидаларининг асосий тамоиллари ҳамда ушбу қоидаларга киритилган ўзгартиришлар, тегишли хукуқбузарликларни аниқлаш, маҳқумларни қийноқлар ва шафқатсиз муомаладан ҳимоя қилиш юзасидан жазони ижро этиш муассасалари ходимларининг билимини ошириш ва кўникмаларини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилади.

Амалий тренинг Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қийноққа солиши ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори ижросини таъминлаш мақсадида ташкил этилди. Бунда Нелсон Мандела қоидаларининг асосий тамоиллари ҳамда ушбу қоидаларга киритилган ўзгартиришлар, тегишли хукуқбузарликларни аниқлаш, маҳқумларни қийноқлар ва шафқатсиз муомаладан ҳимоя қилиш юзасидан жазони

ижро этиш муассасалари ходимларининг билимини ошириш ва қўникмаларини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилади.

Маҳкумларга нисбатан озодликдан маҳрум қилиш жазоси тайинланиб уларнинг баъзи хуқуqlари чекланишига қарамасдан улар бир қатор асосий хуқуqlарга эга бўладилар:

- хусусан, барча маҳкумларга инсон сифатида ўзига хос қадр-киммати туфайли хурмат билан муносабатда бўлиш;
- ирқи, ранги, жинси, тили, дини, сиёсий ёки бошқа эътиқоди, миллий ёки ижтимоий келиб чиқиши, мулкий, мулк ёки бошқа мавқеи бўйича камситмаслик;
- уларнинг диний эътиқодлари ва маданий анъаналарини хурмат қилиш;
- барча маҳкумлар инсон шахсини ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган маданий тадбирларда қатнашиш ва таълим олиш;
- маҳкумларнинг мамлакат меҳнат бозорига қайта интеграсиялашувини осонлаштирадиган ва ўзларини ва оиласарини молиявий қўллаб-қувватлашга ҳисса қўшишга имкон берадиган мазмунли, пуллик иш билан шуғулланиш;
- мамлакатда мавжуд бўлган соғликни сақлаш хизматларидан уларнинг хуқуқий аҳволига қараб камситилмасдан фойдаланиш ва бошқалар.

Шунингдек, барча маҳкумлар Инсон хуқуqlари умумжаҳон декларатсиясида ва агар манфаатдор давлат иштирокчи бўлса, Иқтисодий, ижтимоий ва маданий хуқуqlар тўғрисидаги ҳалқаро пактда ва Фуқаролик ва сиёсий хуқуqlар тўғрисидаги ҳалқаро пакт ва унга факултатив протокол, шунингдек, БМТнинг бошқа инсон хуқуqlари бўйича ҳалқаро конвенцияларида назарда тутилган хуқуqlари ва асосий эркинликларини (озодликнинг чекланиши ва сайлов жараёни билан боғлиқ баъзи хуқуқ ва эркинликлар бундан мустасно) сақлаб қоладилар.

Ҳалқаро миқёсда маҳкумлар хуқуqlарини ҳимоя қилиш бўйича кўплаб ҳалқаро ва минтақавий ҳужжатлар қабул қилинган. 1955 йилда БМТнинг Жиноятчиликнинг олдини олиш ва хуқуқбузарларга қарши кураш бўйича биринчи Конгрессида Маҳкумлар билан муомала қилишнинг минимал стандарт қоидалари қабул қилинди. 2015 йилда БМТ Бош Ассамблеяси XX асрнинг энг таниқли маҳбусларидан бири шарафига ушбу қоидаларнинг янгиланган ва кенгайтирилган версиясини (“Нелсон Мандела қоидалари”) тасдиқлади.

Натижада, Нелсон Мандела қоидалари аъзо давлатлар учун судгача қамоқда сақланаётган шахслардан тортиб, озодликдан маҳрум қилиш жазосига ҳукм қилинган маҳкумларнинг хуқуqlари бўйича батафсил кўрсатмаларни ўз ичига олади. Қоидалар маҳкумларнинг инсоний қадр-кимматини хурмат қилиш, қийноқ ва бошқа турдаги суистеъмолларга йўл қўймаслик мажбуриятига асосланади. Қоидаларда интизомий чоралардан тортиб соғликни сақлашгacha бўлган кенг кўламли масалалар бўйича кўрсатмалар батафсил баён этилган.

Амалий тренинг Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қийноққа солиш ҳолатларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга доир

кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори ижросини таъминлаш мақсадида ташкил этилди. Бунда Нелсон Мандела қоидаларининг асосий тамойиллари ҳамда ушбу қоидаларга киритилган ўзгартиришлар, тегишли ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, маҳкумларни қийноқлар ва шафқатсиз муомаладан ҳимоя қилиш юзасидан жазони ижро этиш муассасалари ходимларининг билимини ошириш ва кўникмаларини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилади.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 28-моддасида озодликдан маҳрум этилган шахслар ўзига нисбатан инсоний муомалада бўлиниши ҳамда инсон шахсига хос бўлган шаъни ва қадр-қиммати ҳурмат қилиниши ҳуқуқига эга эканлиги кафолатланган. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодексида (ЖИК) маҳкумлар ҳуқуqlари белгилаб берилган.

Жумладан, ЖИКнинг 9-моддасига кўра маҳкумлар қуйидаги ҳуқуқларга эга:

- жазони ўташ тартиби ва шартлари тўғрисида, ўз ҳуқуқлари ва мажбуриятлари ҳақида ахборот олиш;
- жазони ижро этувчи муассаса ёки орган маъмуриятига, бошқа давлат органлари ва жамоат бирлашмаларига ўз она тилида ёки бошқа тилда таклиф, ариза ва шикоятлар билан мурожаат этиш;
- ўз таклиф, ариза ва шикоятларига мурожаат этилган тилда жавоб олиш. Мурожаат этилган тилда жавоб беришнинг иложи бўлмаган тақдирда жавоб Ўзбекистон Республикасининг давлат тилида берилади. Жавобни интизомий қисмга жўнатиш ва озодликдан маҳрум этишга ҳукм қилинган шахс мурожаат этган тилга таржима қилиб бериш жазони ижро этувчи муассаса ёки орган томонидан таъминланади;
- тушунтириш бериш ҳамда ёзишмалар олиб бориш, зарур ҳолларда таржимоннинг шу жумладан сурдотаржимоннинг хизматидан фойдаланиш;
- ўқув, бадиий ва бошқа хил ахборот материалларидан фойдаланиш;
- соғлигини сақлаш, шу жумладан тиббий хulosага кўра амбулатория-поликлиника ва стационар шароитда тиббий ёрдам олиш;
- об-ҳаво шароити йўл қўйса, ишдан бўш вақтида тоза ҳавода жисмоний машқлар билан шуғулланиш;
- жазони ижро этиш муассасасининг психологик хизмат кўрсатиш ходимлари томонидан кўрсатиладиган психологик ёрдамни олиш. Озодликдан маҳрум этишга ҳукм қилинган шахсларнинг психологик ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ тадбирларда иштирок этиши фақат уларнинг розилиги билан амалга оширилади;
- меҳнат тўғрисидаги қонунчиликка мувофиқ ҳавфсиз меҳнат шароитига эга бўлиш, дам олиш, таътилга чикиш, шунингдек меҳнатига ҳақ тўланиши;
- маҳкум ажнабий фуқаролар шунингдек ўз давлатларининг дипломатия ваколатхоналари ва консуллик муассасалари билан, Ўзбекистон Республикасида дипломатия ва консуллик муассасалари бўлмаган мамлакатларнинг фуқаролари эса,

уларнинг манфаатларини ҳимоя қилишни ўз зиммасига олган давлатнинг дипломатия ваколатхоналари билан алоқа қилиб туриш хукуқига эга.

Ижтимоий хавфи катта бўлмаган ва унча оғир бўлмаган жиноятлар содир этганлиги учун озодликдан маҳрум этиш жойларида сақланаётган маҳкумлар Ўзбекистон Республикаси Президенти, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатаси депутатлари, халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашлари депутатлари сайловларида ҳамда референдумда иштирок этиш хукуқига эга.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЕТЛАР:

1. Узбекистон Республикаси Конститутсияси

URL:<https://constitution.uz/oz/clause/inder>

2. УЗБЕКИСТОН Республикаси жиноят-ижроия кодекси

URL:<https://lex.uz/does/-163629>

3. Нельсон Монделло коидалари (2016)

4. Файзулаева Т. (2022) Махкумларнинг хукуклари кенгайтирилмокда.

Актуальные вопросы и перспективы цифровизация судебно-правовой деятельности 1(01) 195-198

URL:<https://inlinrary.uz/index.php/combatting-offenses/article/view/14443>

5. Azimovna, R. F. (2024). Youth Entrepreneurship and its Development Measures. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(1), 340-343.

6. Кутыбаева, Е. Д. Утемурадова С. Ш., Сапаров, Д. Т., Жарекев, Б. Б., Бабанов, Ш. А. (2021) ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ПЕРЕКРЕСТКЕ СМЕНЫ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕЖИМОВ.Интернаука,(37-1),53-56)

YANGI O’ZBEKISTONING YOSHLARGA BERILGAN IMKONIYATLAR TAHLILI

Mahammadrizoyeva Madinabonu Mahammadrizo qizi

O’zbekiston Respublikasi Oila va Xotin-qizlar qo’mitasi tomonidan ochilgan Respublika “Qizlarjon” klubi Qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yo’nalishi koordinatori

Tel: +998 91 4565661

Email: mahammadrizoyeva13@mail.ru

Anotatsiya: *Ushbu maqola yoshlar uchun qanday imkoniyatlar yaratilayotgani, buning uchun qanday say-harakatlar amalga oshiralayotgani va O’zbekistonni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan ustuvor yo’nalishlar haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so’z: *BMT, Yoshlarga oid Davlat siyosati, demokratik, liberallashtirish, O’zMilliybank, raqamli texnologiyalar, ma’rifat karvoni, bibliobus,*

KIRISH

O’zbekiston degan yurtda doimo yoshlar e’tibor markazida. Ularning qanday yashayotganligi, qanday ta’lim olayotganligi, va ularning ijtimoiy faoliyati e’tibor markazidadir. Bu yurtda yoshlar kelajagi uchun ko’plab istiqbolli rejalar tuziladi. Bularning barchasi yosh avlod bilimli va yetuk inson bo’lishi uchun xizmat qiladi. Axir O’zbekiston degan yurtning kelajagi yoshlarning qo’lidadir.

Yer deb atalgan sayyoramizda siyosat, iqtisod, ilm-fan, shou-biznes va boshqa sohalarda yoshlar olam shumul kashfiyotlar hamda yangiliklar yaratishmoqda. Shu sababdan O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich BMT bosh Assambleyasining 72-sessiyasida avvalo BMTning yoshlar huquqlari tug’risidagi halqaro kanvestitbsiyani ishlab chiqarish zarurligi haqida taklif bildirdilar. Davlatimiz rahbarining ma’ruzalarida ilgari surilgan takliflar tom ma’noda BMT faoliyatida yangi sahifa oshib beradi. Bu takliflari negizida jahon yoshlarning ta’lim olish huquqini, savodsizlik va jaholatga barham berish, bag’ri kenglikka o’zaro hurmat qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash kabi ezgu maqsadlar nazarda tutiladi. O’zbekiston Respublikasini Mustaqilligining ilk yillaridanoq “Yoshlarga oid Davlat siyosati” ustuvor masalalardan biri bo’lib hisoblanib kelinmoqda. Shunday ekan, mamlakatimizning 30% ni 14 yoshdan 30 yoshgacha bo’lgan yoshlarni tashkil kiladi. O’zbekiston Respublikasining Prezidenti “Yoshlarga oid Davlat siyosati”ni samaradorligini oshirish maqsadida «Kamolot»ijtimoiy harakati negizida «O’zbekiston Yoshlar Ittifoki»ni tashkil etib yoshlar faoliyatini amalga oshiruvchi tizimga aylantirish bilan bir qatorda 2017-2021-yillar O’zbekistonni rivojlantirishning 5ta ustuvor yunalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida farmon imzolanib unga ko’ra davlat va jamiyat qurilish tizimining takomillashtirishning 5ta ustuvor yunalishi keltirilgan.

- Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamalakatni modernizasiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyyosiy partiyalarning rolini yanada takomillashtirish;
- Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish;

-Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish;

- Ijtimoiy sohani rivojlantirish:

-Xavfsizlik, millatlar aro totuvlik va diniy bag‘ri kenglikni ta’minlash hamda chuqr o‘ylangan, o‘zaro manfatli va amaliy tashqi siyosat ustuvor yunalishlardir.

Ushbu harakatlar strategiyasining 4-bo‘lim 5-bandida “Yoshlarga oid Davlat siyosati”ning takomillashtirish bilan bog‘liq vazifalar belgilangan bo‘lib yoshlarning hayoti sohasida ta’limning ustuvorligini ko‘rsatadi. Bulardan tashqari yoshlarga bo‘lgan e’tiborini yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san’ati yoshlarda axborot texnologiyalaridan shakllantirish yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlarni bandligini oshirish, eng asosiysi yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘s sh vaqtini mazmunli tashkil etish buyicha masalalariga ham alohida urg‘u berilib 5ta muhim tashabbuslari ilgari surildi.

1. Tashabbus yoshlar musiqa, rassomlik, adabiyot teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qildida,

2. Tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish ularning sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yunaltirilgan

3. Tashabbus aholi va yoshlar o‘rtasida komp’yuter va internetdan samarali tashkil etishga qaratilgan.

4. Tashabbus yoshlar m’naviyatini yuksaltirish ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yunaltirilgan.

5. Tashabbus xotin-kizlarni ish bilan ta’minlash nazarga tutiladi.

Yoshlar kanchalik ma’naviy barkamol bulsa, turli yod illatlarga qarshi imuniteti ham shuncha kuchli bo‘ladi. Davlatimiz raxbari ijtimoiy, ma’naviy-marifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yulga qo‘yish bo‘yicha 5ta myhim tashabbusni ilgari surar ekan, bu jarayonda Xalk ta’lim vazirligi, madaniyat vazirligi O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda yoshlarmizni iste’dodi va qobiliyatlarini to‘liq amalga oshirishga har bir yunalish uchun etibor berilib amalda ta’fdbiq etilib kuzda tutilgan rejalar amalga oshirilmoqda. Har biriga qisqacha to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak:

1. Tashabbusga qaratilgan taniqli san’atkorlar iste’dodli ijodkorlarni tumanda madaniy ishlarga ko‘makchi sifatida biriktirish hamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziliklariga, tarix darslarini mavzular, tarixiy obidalar qadamjo va teatrlarga sayohat o‘tkazishni tashkil kilish topshirildi.

2. Tashabbusga doir masalalar rejaga kritilar ekan, olis va chekka qishloqlarda yengil kanstruksiya paniylaridan kichik sport zallari va sun’iy qoplamali maydonlar inshootlari tashkil etish unga yer ajratib tadbirkorlarga O‘zMilliybank tomonidan “Yoshlar kelajagimiz” dasturi doirasida imtiyozli kredit ajratib sport anjumanlari bilan ta’minlanib sport maktablariga xalkaro musoboqalarda golib bulgan tanikliy sportchilarni raxbar etib tayinlash topshiriklari berildi.

3. Tashabbusga muvofiq axborot texnologiyalari va kamunikatsiyalarni rivojlantirish vazifalariga ilgor xalqaro tajribalar asosida barcha shaxarlarda va tumanlar markazida raqamlı texnologiyalar va o‘quv markazlarini tashkil qilish ko‘zda tutildi.

4. Tashabbusda ilgari surilgan maksadning negizida bolalik chog‘idan kitobga mehr uyg‘otish, mustakil fikir va keng dunyo karashni shakillantirish ularni hayotida katta zamin

bulib nurli kelajak tomon yetaklaydi. “Ma’rifat karvoni” loyxasi doirasida badiiy, ma’rifiy ishtimoiy mavzularda kitoblar chop etilib bir million nusxdan kam bo’lmagan miqdorda yetkazib berish bo'yicha topshiriqlar berildi. Axborot va ommaviy kamunikatsiyalar agentligiga barcha shahar va tumanlarda ko'chma kitobxonlikni pavilionlarini joylashtirish, “Bibliobus”larni yo’lga qo'yish orqali qishloq va ovul aholisiga kutubxona xizmatlarini tashkil kilishni yo’lga qo'yish. 5 tashabbusga Prezident mexnat kilish istagidagi ayollar, ish o'rnlari sonidan ancha ko'pligini hisobga olib korxonalarda ishni ikki smenada tashkil etish, ularda xaridorgir maxsulotlar ishlab chiqarish zarurligini takidladi. Prezident BMT yuksak mingbaridan turib “Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o’z saloxiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratib berish, zo’ravonlik goyasi, virusi tarqalishini oldini olish, buning uchun yosh avlodni qo’llab quvvatlash, uning huquq va manfatlarini himoya qilish borasidagi ko’p tamonlama hamkorlikni rivojlantirishni lozim deb hisoblaymiz” dedi.

Xulosa. Davlatimiz raxbarining qo'llab quvvatlab O‘zbekiston yoshlari uchun yuqorida aytib o’tilgan 5-ta tashabuslardan unumli foydalangan xolda 2019 Xindiston qitalar aro ma’daniyat asatsatsiyasi xalqaro 39-jahon shoirlar kongresiga bordim xamda 2020 Qirg’iziston Respublikasi O’sh shahrida O‘zbekiston Tojikiston Qozog’iston Qirg’izistonning “Turon uchqunlari” deb nomlangan kanfrensiyaga bordim shoir va shoiralar bilan konfrensiyaga qatnashib fikr almashdik. Qirg’iziston Davlatining O’sh shaxriga xamda Xindiston Davlatining Dehli shaxarlarida bo’lib, kanfrensiyalarga katnashib shoir va shoiralar bilan uchrashib fikr almashdim. Bu Davlatlarning mexmondo’stligi, madaniyati, ochiq ko’ngilligi, mehnatsevarligi menga yoqdi, yaxshi ta’surotlarga ega bo’lib o’z bilim va ko’nikmalarimni oshirib qaytdim. Yurt bo’shimiz yoshlarga cheksiz imkoniyatlar yaratib, eshiklarni keng oolib bergenlari uchun minatdormiz biz yoshlar O‘zbekistoni asrab avaylab bayrogimizni yuqorilarga ko’tarib vatanimiz kelajagi porloq ekanligini namoyon etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.standart.uz/en/page/view?id=201>

www.standart.uz (<https://www.standart.uz/en/page/view?id=201>)

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi.

2 <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonda-yoshlarga-oid-davlat-siyosati-yangi-bosqichda>

Янги Ўзбекистон (<https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonda-yoshlarga-oid-davlat-siyosati-yangi-bosqichda>)

Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati yangi bosqichda

Yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar istiqbolli kelajak garovidir

3 <https://www.uzdon.uz/uz/content/interactive/incoterms/>

4. <https://uznature.uz/uz/site/page?numer=1181>

uznature.uz

(<https://uznature.uz/uz/site/page?numer=1181>)

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirlig

5<https://lex.uz/acts/-140894>

ATROF MUHIT IFLOSLANISHI VA UNDA TIBBIY CHIQINDILARNING ROLI

Umarov Faxriddin Baxriddin o’g‘li
Samarqand Davlat Tibbiyat universiteti talabasi

Ilmiy raxbar:

To‘xtarov Baxrom Eshnazarovich

*Tibbiyat fanlari doktori,
professor Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasи mudiri*

Annotatsiya: *Aholi sonining oshishi, ularga tibbiy xizmat ko’rsatish hajmining o’sishini ko’rsatmoqda. Bu o’z navbatida tibbiy chiqindilarining miqdorining oshishiga olib keladi. Tibbiyat chiqindilarining haddan tashqari o’sishi ekologik holatning yomonlashuviga o’z ta’sirini o’tkazmay qolmaydi va u o’z navbatida atrof-muhitning ifloslanishiga muhim omil bo’ladigan jiddiy xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. Tibbiy chiqindilar hajmi sezilarli darajada oshishi va o’sishda davom etishi ularning nafaqat ekologik, balki epidemik va toksik xavflilik ko’rsatkichlarini oshishiga olib keladi.*

Kalit so’zlar: *Gigiyena, tibbiy chiqindilar, qayta ishslash, infeksiya xavfi.*

Tadqiqotning maqsadi: Tibbiyat xodimlarini sodir bo’lishi mumkin bo’lgan noxush hodisalardan muhofaza qilish, yuqumli kasallikkarni aholi o’rtasida keng tarqalishiga yo’l qo’ymaslik.

Maqsad: Davolash profilaktika muassasalarining barcha chiqindilarini yig’ish, saqlash, qayta ishslash, zararsizlantirish va yo‘q qilish jarayonlari bilan tanishish.

Tadqiqot ob’yektilari: Urgut tumani 1-son shifoxonasi, Urgut tumani tibbiyat birlashmasi.

Tadqiqot predmeti: Urgut tumani 1-son shifoxonasi ,Urgut tumani tibbiyat birlashmasi chiqindilarini yig’ish, saqlash, qayta ishslash, zararsizlantirish va yo‘q qilishga oid olingan ma’lumotlar.

Butun dunyoda va umuman O’zbekistonda tibbiy chiqindilar muhim muammo hisoblanadi. Umuman olganda ularning oqimi (maishiy chiqindilarga qaraganda) yiliga nisbatan 125 ming tonnani tashkil etadi. Biroq, bu chiqindilar infektsiya, kasallik va atrof muhitni ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtida 2019-yilgi Covid-19 pandemiyasi paytida ularning soni, shubhasiz, bir necha o’n ming tonnaga ko’paygan. Umuman olganda, ular infektsianing tarqalishi xavfini keltirib chiqaradi, epidemiologik vaziyatni yomonlashtiradi va atrof-muhitning doimiy ifloslanishiga olib keladi. 1979-yilda Jahan sog’liqni saqlash tashkiloti (JSST) tibbiy chiqindilarni xavfli deb tasniflagan va ularni qayta ishslash bo’yicha maxsus xizmatlarni yaratish zarurligini ko’rsatgan. 1992-yilda Bazel konventsiyasiga binoan (Shveytsariyada) 45 turdagи xavfli chiqindilar ajratildi, ularning ro’yxati klinik chiqindilar tomonidan yig’iladi.

O’zbekistonda tibbiy chiqindilarni boshqarish muammolari, shu jumladan yig’ish, saralash, zararsizlantirish, tashish va qayta ishslash tizimi sxemalari va metodikalarini ishlab chiqish bosqichida. O’zbekistonda 3406 chiqindilarni yoqish moslamalari mavjud bo’lib,

faoliyat ko’rsatayotgan ushbu tibbiyot muassasalarini ham kuydirish pechlari bilan ta’minlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, shahar tipidagi aholi punktlari va qishloqlar aholisida tibbiyot chiqindilari juda ko’p bo’lib, ular hisobga olinmaydi, ular polietilen paketlarga solingan maishiy chiqindilar bilan birga axlatxonalarga tashlanadi va tabiatga tarqalib, shu bilan atrof muhitni ifoslantiradi. Ularning inson salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan turli yuqumli kasalliklarning yangi o’choqlarini paydo bo’lishiga olib kelishi mumkinligiga kafolat yo’q.

Tibbiyot chiqindilari - bu atrof muhitiga zararli kimyoviy, biologik, kimyoviy-biologik preparatlar, tarkibida zaxarli mikroorganizmlar va gelmintlar tuxumlari kelib tushish manbasi, shuningdek, zararli hamda radioaktiv moddalar bilan ifoslangan materiallardir.

Davolash profilaktika muassasalarini chiqindisi deganda, shifoxonalar (respublika, shaxar, klinik, maxsus, tashkilotlarga karashli, ilmiy tadqiqot va oliv ta’lim muassasalarini koshidagi), poliklinikalar (shu jumladan, kattalar, bolalar, stomatologik), dispanserlar, tez tibbiy yordam stansiylarida, qon quyish stansiylarida; bemorlarni uzoq vaqt parvarish qilish muassasalarida; ilmiy tadqiqot institutlarida va tibbiyot yunalishidagi ta’lim muassasalarida; veterinariya shifoxonalarida, dorixona, farmatsevtika ishlab chiqarishida, sog’lomlashtrish muassasalarida (sihatgoh, dam olish uylari, pansionatlar), sanitariya-profilaktika muassasalarida, sud-tibbiy ekspertiza muassasalarida, tibbiy laboratoriyalarda (jumladan, anatomik, patologoanatomik, biokimyo, mikrobiologik, fiziologik), tibbiy yordam ko’rsatuvchi xususiy muassasalaridagi chiqindilarning barcha turi tushuniladi.

Xavfli chiqindilar bu - suyuq yoki qattiq chiqindilar yoki ularning aralashmasi bo’lib, ular o’z xususiyatlari va ularning tarkibida kimyoviy yoki yuqumli qismlarning konsentratsiyasi, shuningdek, tabiiy omillar natijasida:

a) o’lim ko’rsatkichlarining ortishi yoki jiddiy va tuzalmaydigan kasalliklar bilan og’rishning, shuningdek, nogironlik xolatiga olib keluvchi kasalliklarning ko’payishiga sabab bo’lishi mumkin;

b) chiqindilarga noto’g’ri ishlov berish, ularni saqlash, tashish, tashlash, qayta ishlash hozirgi davrda yoki kelajakda inson salomatligi va atrof-muxit xolati xavf tug’dirishi mumkin;

v) infeksiya bilan zararlangan, tarkibida zararli va radioaktiv qismlari bo’lgan, o’zgartirilmagan anatomik chiqindilar ijtimoiy va estetik-ma’naviy sabablarga ko’ra xavflidir.

O’zbekiston Respublikasi davolash-profilaktika muassasalarida chiqindilarni yig’ish, saqlash va utilizatsiya qilish sanitariya qoida va me’yorlari (SanQvaM 0817-15)

Tibbiyot chiqindilari epidemiologik, toksikologik va radiatsion xavfliligi, shuningdek, yashash muhitiga salbiy ta’siriga bog’liq holda beshta xavflilik sinfiga kiritiladi.

1. B va V sinfga kiruvchi chiqindilar ularni qayta ishlatish imkoniyatiga yo’l qo’yilmaydigan fizik ta’sir qilish yo’li bilan zararsizlantirilgan va tashqi ko’rinishi o’zgartirilgandan so’ng A sinf chiqindilari bilan yig’ilishi, vaqtincha saqlanishi, tashilishi, yo’q qilinishi va ko’mib tashlanishi mumkin. B va V sinfga kiruvchi chiqindilar qadoqlangan idishlar chiqindilar zararsizlantirganligi to’g’risida axborot beruvchi belgiga ega bo’lishi kerak.

2. Tibbiyot chiqindilari uchun paketlar sinflari:

3. A sinf - oq rangdagi paketlar.

4. B sinf - sariq rangdagi paketlar.

5. V sinf - to‘q sariq rangdagi paketlar.
6. G sinf - qora rangdagi paketlar.
7. D sinf - jigar rang paketlar

Umuman olganda, atrof-muhit va uning tarkibiy qismlari - suv, tuproq va oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslantiruvchi tibbiy chiqindilar to‘g’ridan-to‘g’ri yoki bilvosita odamlarda xavfli yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishiga xavf tug‘diradi.

Xulosa: O’tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi: Birinchi marta Urgut tumani misolida mintaqadagi yirik kasalxonalarda tibbiy chiqindilar va ularning atrof-muhitga ta’siri tahlil qilindi va ushbu muassasalar orasida chiqindilarni ishlab chiqarishning umumiy hajmi bo‘yicha, birinchi o‘rinda Urgut tuman 1-son shifoxonasi, ikkinchi-Urgut tumani tibbiyot birlashmasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 5
- UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
- <https://cyberleninka.ru/article/n/secrets-of-living-longer-with-a-healthy-lifestyle/viewer>

Международный научный журнал № 3 (100), часть 1 «Научный импульс»
Октябрь, 2022

- <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/827/728>
- EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND
- NATURAL SCIENCES Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.3 | SJIF = 5.995 www.in-academy.uz
- <https://inacademy.uz/index.php/EJMNS/article/view/7125>
- International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers
 - Impact factor (SJIF) = 6.786
 - <https://doi.org/10.5281/zenodo.7516591>
 - GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)ISSN (E): 2347-6915Vol. 11, Issue 1, Jan.(2023)
- <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/3454/3196>